




SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Samarqand viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

2017 yil yanvar–iyunida 2,1 mingdan ortiq kichik biznes (dehqon va fermer xo`jaliklarisiz) sub`yektlari tashkil etildi yoki 2016 yilning shu davriga nisbatan 174,8 foizga ko`paydi. Mazkur kichik biznes sub`yektlarining eng ko`pqismi sanoat tarmog`ida (28,8%), savdo sohasida (21,5%), qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida (13,5%) va qurilishda tarmog`ida (8,8%) tashkil etilgan.

2017 yil yanvar–iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi



2017 yilning yanvar–iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`yektlari tomonidan:

– sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2646,0 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 59,3 foizi) yoki 2016 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 109,3 foizni tashkil etdi;



– 103,5 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 64,4 foizi) o`zlashtirildi yoki 2016 yilning yanvar–iyuniga nisbatan 59,4 foizni tashkil etdi;



– 1331,1mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 95,0 foizi) bajarildi yoki 2016 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 95,2 foizni tashkil etdi;



– 2242,1 mld. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (jami xizmatlar hajmining 72,8 foizi), 2016 yilning yanvar–iyuniga nisbatan 109,3 foizni tashkil etdi;




– chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining 94,6 foizi yoki 4132,4 mld. so`mi (o`sish sur`ati 100,6 foiz) shakllantirildi;

– 91,1 mln. AQSh dollarari (umumiy eksport hajmining 82,2 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksporti amalga oshirildi, bu esa 2016 yilga nisbatan 117,1 foizni tashkil etdi;



– avtomobil transporti yuk aylanmasining 108,3 foizga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 96,1 foizi);

– yo`lovchi aylanmasining esa 113,1 foizga (umumiyo`lovchi aylanmasining 92,5 foizi) ko`payishi ta`minlandi;



– 1281,1 ming nafar kishining bandligi ta`minlandi (jami iqtisodiyotda band bo`lganlarning 84,4 foizi) (o'sish sur'ati 102,5 foiz);

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi eksportda – 82,2 foizni (2016 yilning yanvar–iyunda 80,9 foiz), sanoatda – 59,3 foizni (59,8 foiz), xizmatlarda – 72,8 foizni (73,7 foiz), qurilishda – 95,0 foizni (93,9 foiz) va bandlikda – 84,4 foizni (84,0 foiz) tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (umumiyo`hajmga nisbatan foizda)

